


Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2020- yil yanvar-noyabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 32 154,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 101,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (98,0 %) ni tashkil etdi.



B– Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeks hisobida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 6,5 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash- 81,2 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 10,1 % ga o'sishi kuzatildi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da



Ishlab chiqaradigan sanoat



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31501,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 98,0 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 204 466 dona engil avtomobil ishlab chiqarilib (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,8 % ga o'sgan), 59 261,8 tonna kalava ip (5,4 %), 140 361,5 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (13,7 %), 5 960,0 tonna yurgizuvchi g'ildiraklar, qismlari va ularni jihozlari (1,8 %), 12625,0 ming. litr 80% dan kam bo'lmagan etil spirti, 574,5 tonna Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar (64,3 %), 145,4 tonna Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqalar (2,4%) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	198811	204466	5655
Paxtadan yigirilgan ip, tonna.	56199,5	59261,8	3062,3
Aroq, ming litr.	756,0	730,0	-26,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna.	123502,0	140361,5	16859,5
Paxta tolasi, tonna.	20299,5	41525,2	17477
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna.	11633,6	6279,1	-5354,5

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar - 2,8 % ga oshdi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 73 871 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,3 %), 62 302 dona "Nexia T-250" (88,7 %), 45 835 dona "Lacetti-Gentra" (113,5 %), 22 458 dona "Spark" (98,6 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, dona




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 487,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,5 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar- noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,1 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	435,4	254,1	-181,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	69,6	68,6	-1,0
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm.	274,2	323,0	48,8


O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 41,6 %, Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish 1,5 % pasaydi hamda elektr energiya uzatish bo'yicha xizmatlar 17,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	31,1	38,0	6,9
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	9,9	7,8	-2.1
To'qimachilik chiqindilari, t	568	1024	456

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 22,1 %, hamda to'qimachilik chiqindilari 80,3 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni shlami berish bo'yicha xizmatlar – 20,8 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 24 149,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan -2,7 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 77,2 % ni, shuningdek, Andijon shahar 5,3 % ni, Xo'jaobod tumani 2,5 % ni, Oltinko'l tumani 1,8 % ni hamda Shahrixon tumani 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (97,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Izboskan (175,1 %), Xo'jaobod (120,0 %), Ulug'nor (120,7 %), Oltinko'l (112,4 %), Qo'rg'ontepa (100,7 %), Bo'ston (100,5 %), tumanlarida hamda Andijon shahrida (106,2 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab

chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 274,6	5,3	106,2		95,1	0,4	98,0
Andijon shahar				Xonobod shahar			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	502,6	2,1	100,7		18 653,9	77,2	94,5
Andijon				Asaka			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	230,7	1,0	100,6		238,4	1,0	101,0
Baliqchi				Buloqboshi			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	155,7	0,6	100,5		276,4	1,1	96,4
Bo'ston				Jalaquduq			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	431,9	1,8	175,1		116,3	0,5	120,7
Izboskan				Ulug'nor			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	172,8	0,7	101,4		427,9	1,8	112,4
Marhamat				Oltinko'l			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	233,1	1,0	102,7		607,8	2,5	120,0
Paxtaobod				Xo'jaobod			
	Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrld. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	410,1	1,7	95,2		321,9	1,3	100,7
Shahrixon				Qo'rg'ontepa			

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 214,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.


Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

	Mlrd. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da			
	32 154,8		100,0	101,7			
	Andijon viloyati *						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5202,1	16,2	115,5		1 140,7	3,5	103,5
	Andijon shahar				Xonobod shahar		
	Mlrd. cym	Ulushi % da	O'sish sur'ati		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	813,7	2,5	101,3		19 174,6	59,6	96,1
	Andijon				Asaka		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	637,0	2,0	100,1		263,2	0,8	103,1
	Baliqchi				Buloqboshi		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	267,0	0,8	103,8		545,3	1,7	108,0
	Bo'ston				Jalaquduq		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	683,7	2,1	146,5		211,0	0,7	100,9
	Izboskan				Ulug'nor		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	302,1	0,9	107,0		518,5	1,6	113,9
	Marhamat				Oltinko'l		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	401,4	1,2	107,4		655,7	2,0	110,2
	Paxtaobod				Xo'jaobod		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	640,3	2,0	98,9		688,3	2,1	108,1
	Shahrixon				Qo'rg'ontepa		

* shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Shahrixon (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 98,9 %), Asaka 96,1 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Izboskan (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 146,5 %), Oltinko'l (113,9 %), Xo'jaobod (110,2 %), Qo'rg'ontepa (108,1 %), Jalaquduq (108,0 %), Paxtaobod (107,4 %), Marhamat (107,0 %), Xonobod (103,5 %), Bo'ston (103,8 %) va Asaka (96,1 %) tumanlarida, hamda Andijon shahrida (115,5 %) sezilarli darajada oshdi.

Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 59,6 % i) hamda Andijon shahrida (16,2 %), Xonobod shahar (3,5 %), Andijon (2,5 %), Qo'rg'ontepa (2,1 %) va Xo'jaobod (2,0 %) tuman va shaharlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Buloqboshi (0,8 %), Bo'ston (0,8 %) hamda Ulug'nor (0,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka

(58 388,0 ming so'm), Xonobod shahar (26 652,8 ming so'm) va Andijon shahrida (11 698,1 ming so'm) tuman va shaharlarda o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 208,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 7 666,7 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 56 802,4 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 5 510,4 ming so'mni, Andijon shahrida – 2 866,3 ming so'mni, Xonobod shahrida 2 222,1 ming so'mni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	10 208,2		7 666,7		
	Andijon viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	11 698,1	2 866,3		26 652,8	2 222,1
	Andijon sh.		Xonobod sh.		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 084,4	1 905,2		58 388,0	56 802,4
	Andijon		Asaka		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 174,1	1 149,5		1 843,1	1 669,7
	Baliqchi		Buloqboshi		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 698,3	2 155,9		2 933,4	1 486,8
	Bo'ston		Jalaquduq		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 870,2	1 813,4		3 702,3	1 947,4
	Izboskan		Ulug'nor		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 744,1	997,6		2 911,6	2 402,8
	Marhamat		Oltinko'l		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 078,9	1 207,2		5 944,3	5 510,4
	Paxtaobod		Xo'jaobod		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 135,8	1 367,9		3 183,5	1 488,8
	Shahrixon		Qo'rg'ontepa		

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 962,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahrixon (82,3 %), Jalaquduq (77,9 %), Izboskan (73,0 %), hamda Andijon (71,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka tumani (2,3 %), Xonobod shahar (13,4 %) va Andijon shaharida (23,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 8411 dona sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3074 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 36,5 % i) Andijon shahriga, 886 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 670 tasi (8,0 %) Andijon tumaniga, 621 tasi (7,4 %) Shahrixon tumaniga, 455 tasi (5,4 %) Xo'jaobod tumaniga, 397 tasi (4,7 %) Oltinko'l tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda
39	Ulug'nor	91
37	Xonobod sh	147
101	Bo'ston	175
110	Paxtaobod	224
81	Marhamat	246
92	Buloqboshi	247
95	Baliqchi	269
124	Jalaquduq	284
91	Izboskan	289
114	Qo'rg'ontepa	336
116	Oltinko'l	397
152	Xo'jaobod	455
164	Shahrixon	621
152	Andijon	670
170	Asaka	886
738	Andijon sh	3074

2020- yilning yanvar - noyabr oyida viloyatda 2 376 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 738 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 31,1 %) Andijon shahrida, 170 tasi (7,2 %) Asaka tumanida, 164 tasi (6,9 %) Shahrixon tumanida, 152 tasi (6,4 %) Xo'jaobod tumanida, 152 tasi (6,4 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (886ta), Andijon (670 ta), Shahrixon (621 ta), Xo'jaobod (455 ta), Oltinko'l (397 ta), Qo'rg'ontepa (336 ta) va Izboskan tumanlarida (289 ta) hamda Andijon shaharida (3 074 ta) qayd etildi.



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (284 ta), Baliqchi (269 ta), Buloqboshi (247 ta), Marhamat (246 ta), Paxtaobod (224 ta), Bo'ston (175 ta) va Ulug'nor tumanlarida (91 ta) hamda Xonobod shahrida (147 ta) faoliyat yurgizayotgan korxonalar qayd etildi.

Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (74) 228-30-42